


81

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**BALIQLARNING PARAZITAR VA INVAZION KASALLIKLARI  
FANNING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya

**Ta'lim sohasi:** 840000 – Veterinariya

**Mutaxassislik:** 70840108 – Baliq kasalliklari

Samarqand 2024

Fan/modul kodi BPIK1206		O'quv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 8	
Fan modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Baliqlarning invazion kasalliklari	120		120	240
2.	I. Fanning mazmuni				
<p>Fanni o'qitishdan maqsad - magistrantlarga baliqlarning invazion kasalliklarining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmi, biologik rivojlanishi, kasalliklarning klinik belgilari, baliqlar organizmidagi patologianatomik rivojlanishi, tashxis qo'yishda informativ ma'lumot beruvchi belgilarning ahamiyati hamda davolash va oldini olishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – tanlangan mutaxassislik doirasida magistrantlarga bilim berish va ularga sodir etilgan invazon kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash ko'nikmalarini singdirish. Shuningdek, magistrantlarga baliqlarning invazion kasalliklariga qarshi zamonaviy va innovatsion qarshi kurash chora-tadbirlarini olib borish, baliqlarda uchraydigan kasalliklarni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo'riqnomalari bo'yicha chora tadbirlar o'tkazish kabilardan iborat.</p>					
<p align="center"><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p align="center"><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p align="center"><b>1-modul. Kirish. Baliqchilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati</b></p> <p align="center"><b>1-2-mavzu. Kirish. Baliqlarning invazion kasalliklari tasnifi</b></p> <p>Respublikamizda baliqchilikning rivojlanishi. Baliqlarning invazion kasalliklarini o'rgangan olimlar. Invazion kasalliklarning kelib chiqish sabablari, baliqlar organizmida joylashishi, parazitning rivojlanish sikllari. Atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligi, xo'jayin organizmiga ta'siri, immunitetning hosil bo'lishi kabi omillar</p>					
<p align="center"><b>2-modul. Havzalarda veterinariya tadbirlari</b></p> <p align="center"><b>3-4-mavzu. Havzalarda invazion kasalliklariga qarshi kurash va profilaktik veterinariya tadbirlari</b></p> <p>Havzalarda invazion kasalliklarga qarshi kurash usullari. Meliorativ usullar, profilaktik tadbirlar, havzaning gidrologik sharoitlari. Hidrokimyoviy omillar (vadorod ko'rsatkichi, Ca va K ionlarining rsatkichi, kislorod miqdori, zichligi), invazion kasalliklariga qarshi ishlov berishni tashkil qilish. Doimiy ravshda</p>					

havzalarni milorativ holatini nazorat qilish va uni normasini taminlash.

### **3-modul. Baliqlarning invazion kasalliklari**

#### **5-6-mavzu. Baliqlarning protozooy kasalliklari (ixtiobodoz, xilodenillyoz)**

Baliqlarning protozooy kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning ixtiobodoz, xilodenillyoz kasalliklari kelib chiqish sabablari. Kasallikni tarqalishi, biologik rivojlanishi, davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari. Yosh baliqlarning, asosan lichinkalarning nobud bo'lishi iqtisodiy zararni keltirib chiqishi hamda kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

#### **7-mavzu. Baliqlarning trixodinoz, kostioz kasalliklari**

Baliqlarning protozooy kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Bu baliqlarning trixodinoz, kostioz kasalliklari kelib chiqish sabablari, tarqalishi, iqtisodiy zarari. Kasallikni biologik rivojlanishi davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

#### **8-mavzu. Baliqlarning ixtioftirioz kasalligi**

Baliqlarning protozooy kasalliklari. Kasalliklarning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning ixtioftirioz kasalligi kelib chiqish sabablari, tarqalishi, iqtisodiy zarari, biologik rivojlanishi. Kasallikni davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

#### **9-mavzu. Baliqlarning monogenoydoz kasalliklari (girodaktilyoz)**

Baliqlarning monogenoydoz kasalliklari. Kasalliklarning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning girodaktilyoz kasalligi kelib chiqish sabablari, tarqalishi, iqtisodiy zarari, biologik rivojlanishi. Kasallikni davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

#### **10-mavzu. Baliqlarning daktilogiroz kasalliklari**

Baliqlarning monogenoydoz kasalliklari. Kasalliklarning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning daktilogiroz kasalligi kelib chiqish sabablari, tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar, davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

#### **11-mavzu. Baliqlarning trematodoz kasalliklari (diplostomatidoz va postodiplostomoz)**

Baliqlarning trematodoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning metaserkariozli diplostomatidoz va postodiplostomoz kasalliklari kelib chiqish sabablari. Kasallikni tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar. Kasalliklarni davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.



### **12-mavzu. Baliqlarning Opistorxoz kasalliklari**

Baliqlarning trematodoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning metaserkariozli opistorxoz kasalligining kelib chiqish sabablari. Kasallikni tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar. Kasallikni davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

### **13-14-mavzu. Baliqlarning sestodoz kasalliklari (ligulyoz, digrammoz)**

Baliqlarning sestodoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning ligulyoz, digrammoz kasalliklari kelib chiqish sabablari. Kasallikni tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar. Kasallikni davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

### **15-mavzu. Baliqlarning difillobotrioz, botriosefalyoz kasalliklari**

Baliqlarning sestodoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning difillobotrioz, botriosefalyoz kasalliklari kelib chiqish sabablari. Kasallikni tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar, davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari. Kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

### **16-mavzu. Baliqlarning kavioz, trienoforoz kasalligi**

Baliqlarning sestodoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning kavioz, trienoforoz kasalliklari kelib chiqish sabablari. Kasallikni tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar, davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari. Kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

### **17-mavzu. Baliqlarning gelmintozoonoz kasalliklari**

Baliqlarning gelmintozoonoz kasalliklari Kasalliklarning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning opistorxoz, difillobotrioz kasalliklari kelib chiqish sabablari, tarqalishi. Kasallikni iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar, davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari. Kasallikga barham beruvchi chora – tadbirlar.

### **18-mavzu. Baliqlarning nematodoz kasalliklari (exinorinxoz, neoxinorinxoz)**

Baliqlarning nematodoz kasalliklari. Kasalliklarning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning exinorinxoz, neoxinorinxoz kasalliklari kelib chiqish sabablari, tarqalishi. Kasallikni iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar, davolash,

oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikka barham beruvchi chora – tadbirlar.

**19-20-mavzu. Baliqlarning dioktofimoz, filomitroidoz kasalliklari**

Baliqlarning nematodoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning dioktofimoz, filomitroidoz kasalliklari kelib chiqish sabablari, tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri. Kasallikni etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar, davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari. Kasallikka barham beruvchi chora – tadbirlar.

**21-mavzu. Baliqlarning krustatseoz kasalliklari (argulyoz va lernioz)**

Baliqlarning krustatseoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning argulyoz va lernioz kasalliklari kelib chiqish sabablari, tarqalishi. Kasallikni iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar. Kasallikni davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikka barham beruvchi chora – tadbirlar.

**22-mavzu. Baliqlarning ergazilyoz va sinergazilyoz kasalliklari**

Baliqlarning krustatseoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning ergazilyoz va sinergazilyoz kasalliklari kelib chiqish sabablari. Kasallikni tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar. Kasallikni davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikka barham beruvchi chora – tadbirlar.

**23-mavzu. Baliqlarning Dioktofimoz kasalliklari**

Baliqlarning krustatseoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning dioktofimoz kasalliklari kelib chiqish sabablari. Kasallikni tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar. Kasallikni davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikka barham beruvchi chora – tadbirlar.

**24-mavzu. Baliqlarning exinorinxoz, pistikolyoz kasalliklari**

Baliqlarning krustatseoz kasalliklari va ularning qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumot. Baliqlarning exinorinxoz, pistikolyoz kasalliklari kelib chiqish sabablari, tarqalishi. Kasallikni iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasi, epizootologik ma'lumotlar. Kasallikni davolash, oldini olish va qarshi kurash usullari hamda kasallikka barham beruvchi chora – tadbirlar.

**25-mavzu. Baliqchilik xo'jaliklarida parazitlar kasalliklarga qarshi ishlov berish tadbirlari**

Baliqlarning parazitlari va ularning qo'zg'atuvchilariga qarshi ishlatiladigan vositalar haqida ma'lumot. Baliqlarning parazitlari va ularning qo'zg'atuvchilariga



qarshi ishlatiladigan vositalar miyyorlari. Kasalliklarga qarshi ishlatiladigan vositalar iqtisodiy samaradorligi va qo'zg'atuvchining biologik rivojlanishi va rivojlanish davri, etiologiyasiga ta'siri. Ximoprofilaktik vositalarning turlari.

### III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

#### III.1. Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Havzalarni umumiy va xususiy ixtiopatologik tekshirish usullari
2. Baliqlarning parazitar va invazion kasalliklarini klinik va organoleptik tekshirish usullari.
3. Baliqlarning parazitar va invazion kasalliklarini epizootologik tekshirish usullari.
4. Baliqlarning kostioz kasalligi
5. Baliqlarning ixtioftirioz kasalligi
6. Baliqlarning xilodenilyoz kasalligi
7. Baliqlarning trixodinoz kasalligi
8. Mastigoforozlar tomonidan qo'zg'atiladigan protozozlar
9. Baliqlarning daktilogiroz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash
10. Baliqlarning girodaktilyoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash
11. Baliqlarning diplostomoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash
12. Baliqlarning postodiplostomoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash
13. Baliqlarning ligulyoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
14. Baliqlarning digrammoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
15. Baliqlarning botriosefalyoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
16. Baliqlarning kavioz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
17. Baliqlarning difillobotrio z kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
18. Baliqlarning trienofoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
19. Baliqlarning rossikotrimoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
20. Baliqlarning dioktofimoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti parranda, baliq, asalari va mo'yinali xayvonlar kasalliklari kafedrasida assistenti, v.f.f.d. (PhD), F.E. Kurbanov tomonidan tayyorlangan 70840108 - Baliq kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha «Baliqlarning parazitar va invazion kasalliklari» fanning o'quv dasturiga

### TAQRIZ

Dastur 70840108 - Baliq kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha «Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari» fanidan tayyorlangan bo'lib, uning tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy t'limdagi o'rni, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari ro'yxati ko'rsatilgan.


O'zbekiston Respublikasi suv havzalaridagi baliqlarda uchraydigan yuqumli va invazion kasalliklarining umumiy patologiyasining asoslari, kasalliklarni oldini olish, ularni davolash asoslari keltirilgan. epizootologiyasi, qo'zg'atuvchilari, ularning bioekologik xususiyatlari, klinik belgilari, differentsiatsiyasi, davolash va profilaktika chora-tadbirlari bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan. Hozirgi kunda sohaning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda baliqlar kasalliklariga qarshi kurash, oldini olish va diagnostika qilish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dasturning asosiy qismida fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni, magistr larga kasalliklar etiologiyasi, diagnostikasi, davolash va oldini olishda zamonaviy usullar va texnologiyalar, kasalliklarni oldini olishning zamonaviy uslub va vositalarini takomillashtirish orqali baliqlar maxsuldorligi va reprodktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.

Dastur ilmiy va uslubiy jihatdan DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman. Dasturni chop etishga tavsiya etaman.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti  
"Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya"  
kafedrasida dotsenti, b.f.n.

A.M. Vaxidova



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti parranda, baliq, asalari va mo'ynali xayvonlar kasalliklari kafedrası assistenti, v.f.f.d. (PhD), F.E. Kurbanov tomonidan tayyorlangan 70840108 - Baliq kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha «Baliqlarning parazitlar va invazion kasalliklari» fanning o'quv dasturiga**

**TAQRIZ**


Dastur 70840108 - Baliq kasalliklari mutaxassisligi bo'yicha «Baliqchilik xo'jaliklarida veterinariya sanitariya tadbirlari» fanidan tayyorlangan bo'lib, uning tarkibida o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy t'limdagi o'rni, o'quv fanining maqsadi va vazifalari, asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari), amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari ro'yxati ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi suv havzalaridagi baliqlarda uchraydigan yuqumli va invazion kasalliklarining umumiy patologiyasining asoslari, kasalliklarni oldini olish, ularni davolash asoslari keltirilgan. epizootologiyasi, qo'zg'atuvchilari, ularning bioekologik xususiyatlari, klinik belgilari, differentsiatsiyasi, davolash va profilaktika chora-tadbirlari bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan. Hozirgi kunda sohaning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda baliqlar kasalliklariga qarshi kurash, oldini olish va diagnostika qilish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarinibajarish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dasturning asosiy qismida fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni, magistr larga kasalliklar etiologiyasi, diagnostikasi, davolash va oldini olishda zamonaviy usullar va texnologiyalar, kasalliklarni oldini olishning zamonaviy uslub va vositalarini takomillashtirish orqali baliqlar maxsuldorligi va reproguktiv qobiliyatini oshirish hamda iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning ilmiy va amaliy qonuniyatlarini yaratishni o'rgatishdan iborat.

Dastur ilmiy va uslubiy jihatdan DTS talablariga javob beradi deb hisoblayman. Dasturni chop etishga tavsiya etaman.

Toshkent davlat agrar universiteti  
Umumiy zootexniya va  
veterinariya kafedrası prof.



*Kurbanov F.E.*  
*M.A. Yuldashov*  
2023 17.10.2023

usullari

21. Baliqlarning metorxoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
22. Baliqlarning anizakidoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
23. Baliqlarning opistorxoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
24. Baliqlarning filomitroidoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
25. Baliqlarning angvillikolyoz kasalligining differensial diagnostikasi va davolash usullari
26. Baliqlarning neoxinorinxozga oldini olish va qarshi kurash usullari
27. baliqlarning exinorinxozga qarshi kurash chora tadbirlari
- 28-29. baliqlarning bdellozlariga qarshi kurash
30. baliqlarning pistikolyozga qarshi kurash
31. baliqlarning argulyoz kasalligini davolash va oldini olish
32. baliqlarning lernioz kasalligini davolash va oldini olish
33. baliqlarning ergazilyoz kasalligini davolash va oldini olish
34. baliqlarning sinergazilyoz kasalligini davolash va oldini olish
35. Kasalliklarga qarshi kurashishda ishlatiladigan vositalar va ularning turlari.

Amaliy mashg'ulotlar zarur asbob-uskunalar, preparatlar bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Baliqchilik xo'jaliklarining biologik asoslari
2. Baliqchilik xo'jaliklarining bioekologik xususiyatlari
3. Havuzlarda invazion kasalliklariga qarshi kurashishning zamonaviy usullari
4. Havzalarda invazion kasalliklarining profilaktikasi
5. Baliqlarning parazitlar kasalliklarini davolashda zamonaviy dori preparatlari
6. Baliqlarning parazitlar kasalliklarini tekshirish usullari
7. Baliqlarning kriptobioz kasalligi
8. Baliqlarning koksidioz kasalligi
9. Baliqlarning ligulyoz va botriosefalyoz kasalligini davolash va profilaktikasi
10. Baliqlarning argulyoz kasalligiga qarshi kurash
11. Baliqlarning lernioz kasalligiga qarshi kurash



	<p>12. Baliqlardan odamlarga o'tadigan gelmintozoonoz kasalliklari</p> <p>13. Havzalarni dorilash ishlari</p> <p>14. Intensiv suv havzalarini invazion kasalliklardan himoya qilish usullari</p> <p>15. Suv havzalarida biologik zanjirni uzishning zamonaviy usullari</p> <p>Mustaqil o'zlashtirilgan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmoqlaridan foydalanib referat va uning taqdimoti, organlarning preparatini tayyorlashi, preparovka qilishi, xorijiy tillardagi adabiyotlardan foydalanishi, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqishi tavsiya etiladi.</p>
3.	<p><b>VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Magistr bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• baliqchilik tarmoqlarida veterinariya ishini tashkil etish, boshqarish jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish hamda amaliyotda ushbu chora-tadbirlarni qo'llashning ilmiy asoslari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)</i></li> <li>• baliqlarning turli xil invazion kasalliklari va ular oqibatida kelib chiqadigan iqtisodiy zararlarni oldindan aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish hamda mavsumiy ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini tashkillashtirishda asbob-uskunalar bilan ishlashni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</i></li> <li>• baliqlarning invazion kasalliklarining kelib chiqish sabablari, iqtisodiy zarari, klinik va patologoanatomik tekshiruvlarni, zamonaviy laboratoriya tekshirishlarni bilishi va ulardan amaliyotda foydalana olishi, baliqlardan qon va namuna olish tartibi, baliq tanasidagi parazitlarni ajratishni, parazitlar kasalliklariga diagnoz qo'yish tartibini, kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini tashkillashtirishda komplekslik tamoyilini ustuvorligi, uning nazariy va amaliy asoslarini hamda bu muammolar bo'yicha yechimlar qabul qila olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)</i></li> </ul>
4.	<p><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <p>1- Yunusov X.B., Davlatov R.B., Qurbonov F.I., Achilov O.E., Yuldoshev</p>

	<p>X.T., Baliqlarning parazitlar va invazion kasalliklari. O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti. Toshkent. 2023 yil.</p> <p>2- A.S.Daminov, Sh.N.Nasimov, V.A.Gerasimchik, S.B.Eshburiev, F.I.Qurbonov "Baliq kasalliklari" O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti. Toshkent. 2020 yil.</p> <p>3- Haqberdiyev P.S., Qurbonov F.I. "Baliq va asalari kasalliklari". O'quv qo'llanma. "Navro'z" nashriyoti. Toshkent. 2016 yil.</p> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.</p> <p>4. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.</p> <p>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.</p> <p>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.</p> <p>7. В.А. Герасимчик, Е.Ф. Садовникова "Болезни рыб и пчел" Учебное пособие. Минск, 2017 год.</p> <p>8. Н.А. Головина и другие "Ихтиопатология". Учебник, Издательство "Мир" 2003 год.</p> <p><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>1. <a href="http://www.Ziyonet.uz">www.Ziyonet.uz</a></p> <p>2. <a href="http://www.vetjurnal.uz">www.vetjurnal.uz</a></p> <p>3. <a href="http://www.veterinariy.actavis">www.veterinariy.actavis</a></p> <p>4. <a href="http://www.wikipedia.org">www.wikipedia.org</a></p> <p>5. <a href="http://www.aquafish.uz">www.aquafish.uz</a></p>
7.	<p>Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashining 2024-yil "2"-avgustdagi "12-sonli bayoni bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>F.E.Kurbanov – SamDVMCHBU, "Parranda, baliq, asalari va mo'ynali hayvonlar kasalliklari" kafedrasida assistenti, veterinariya fanlari falsafa doktori (PhD).</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>1.M.A.Yuldashov – Toshkent davlat universiteti Umumiy zootexniya va veterinariya kafedrasida professori, b.f.d.</p> <p>2.M. Allamurodova – Samarqand viloyati hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi direktori.</p>